

GIYOHVANDLIK VA NIKOH: HUQUQIY VA IJTIMOIIY OQIBATLAR

*Jurakulova Rushana Sharofovna*  
*ORCID 0009-0007-6706-0592*  
*jurakulovarushana74@gmail.com*  
*Toshkent davlat yuridik universiteti*  
*Xususiy huquq fakulteti 3-kurs*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamiyatda uchrayotgan muammoli vaziyatni tahlili va uning yechimi masalasi bayon etilgan. Chindan oila sifatida yashashga ulgurmagan, er-xotinlik munosabatiga kirishmagan yoshlar o‘rtasida to‘ydan oldin, ammo qonuniy nikoh tuzilgandan so‘ng ulardan biri giyohvand ekanligi ma‘lum bo‘lib qolsa, nikoh bekor qilinishi va uning oqibatlari bayon etilgan. Ushbu oqibatlarni bartaraf etish yechimlari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** giyohvandlik, nikohni bekor qilish, nikohni haqiqiy emas deb topish, ularning oqibatlari

DRUG ADDICTION AND MARRIAGE: LEGAL AND SOCIAL  
CONSEQUENCES

Jurakulova Rushana Sharofovna  
ORCID 0009-0007-6706-0592  
jurakulovarushana74@gmail.com  
Tashkent State University of Law  
Faculty of Private Law, 3rd Year

**Abstract:** This article analyzes a problematic situation encountered in society and proposes solutions to address it. The issue involves young couples who have not yet fully established a married life or entered into a spousal relationship. However, after a legal marriage has been registered, it is revealed that one of the spouses is a drug addict. The article discusses the annulment of such a marriage and the consequences that follow. Solutions to mitigate these consequences are also provided.

**Key words:** Drug addiction, annulment of marriage, declaring a marriage invalid, consequences of annulment

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatda ijtimoiy munosabatlar yanada rivojlanib bormoqda. Natijada vujudga kelayotgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish masalasi ham muhim jihatga aylanmoqda.

Ota-ona farzandini uylantirishni, uni uyli-joyli qilmoqlikni, qizlarini munosib

insonga turmushga bermoqni istaydi. Shu sababli ham, ba’zida shoshib, kelin yoki kuyov tarafni yaxshi o’rganmay notog’ri qaror qabul qilinayotganini bugungi kunda ko’plab guvohi bo’lmoqdamiz. Nikoh jamiyatning asosiy institutlaridan biri hisoblanadi, oilaning asosiy poydevori bo’lib xizmat qiladi. Nikoh o’zaro ishonchga, halollikka, tushunishga asoslangan bo’lsa barqaror va davomli bo’ladi. Hozirgi davrda yoshlar o’rtasida turli xil psixotrop dori vositalari va giyohvandlik moddalariga ruju qo’yish holatlari yuz bermoqda. Ota-onalar, yoshlar ko’pincha oila qurish oldi, bo’lajak turmush o’rtog’ini bu kabi illatlari borligini bilmay qolmoqda.

Oilada sog’lom muhitni shakllantirish, tug’ma nuqsoni bor bolalarni tug’ilishining oldini olish uchun nikohga kirishayotgan ikki taraf ham ruhiy va jismoniy sog’lom bo’lmog’i darkor.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.08.2003-yildagi 365-son qarori bilan tasdiqlangan “Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko’rikdan o’tkazish to’g’risidagi nizomi” da nikoh qurishni istab, FHDY organlariga ariza bilan murojaat etganlar, nikohdan o’tishlaridan oldin tibbiy ko’rikdan o’tishlari shart ekanligi belgilangan. Nikohlanuvchi shaxslar psixik, narkologik, tanosil kasalliklari, sil kasalligi va OIV/OITS yuzasidan tibbiy ko’rikdan o’tishi belgilangan<sup>1</sup>. [“Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko’rikdan o’tkazish to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.08.2003-yildagi 365-son qarori. O’zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. I.Umumiy qoidalar 4-band.]

Ammo bugungi kunda tibbiy ko’rikda giyohvandlikni yashirish uchun turli yo’llar qo’llanilmoqda. Masalan, giyohvandlik moddalarini uzoq vaqt davomida iste’mol qilmasdan, uni organizmdan chiqishini kutish yoki tibbiy ko’rik xulosalarini soxtalashtirish holatlari. Bu nikohlanuvchi shaxslarning keyingi turmushini xavf ostiga qoldirish demakdur.

Yurtimizda xalqqa to’y qilib, oila qurishganini bildirishdan oldin, nikohlanuvchi shaxslar FHDY bo’limidan qonuniy nikohdan o’tishadi, bu ular er-xotinlik munosabatiga kirishmasalarda, ular qonun jihatidan oila deb qaraladi. Demak, katta hayotga qadam qo’ygan yoshlardan biri giyohvand bo’lib chiqsa va bu haqida nikohdan o’tishganidan so’ng ammo to’ydan oldin bilib qolishsa, nikoh bekor qilinadimi yoki haqiqiy emas deb topiladimi va bu ikki holatning oqibatlari qanday bo’lishi ushbu maqolada bayon etiladi.

### **METODOLOGIYA:**

Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasining qonunchiligini xorijiy mamlakatlar qonunchiligi bilan taqqoslash, mavjud muammoli vaziyatni O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari asosida huquqiy tahlil qilish va jamiyatda yuzaga

<sup>1</sup> “Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko’rikdan o’tkazish to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.08.2003-yildagi 365-son qarori. O’zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. I.Umumiy qoidalar 4-band.

kelayotgan muammolarni misollar asosida tushuntirib berish usullari qo‘llanilgan.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksida (bundan buyon matnda Oila Kodeksi deb keltiriladi) nikohni uning ijtimoiy mohiyati va maqsadini, yosh avlodning axloqi va sihat-salomatligini hisobga olib, bir qator shartlarga rioya qilgan holda tuzish zarurligi belgilangan. Ushbu shartlarning buzilishi nikohning tugatilinishiga yoki uning haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 7-bobi nikoh qanday hollatlarda tugatilishiga bag‘ishlangan. Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida va sud tartibida bekor qilinadi.

Agarda er-xotinning o‘zaro roziligi bo‘lsa, shuningdek, er yoki xotindan biri sud tomonidan bedarak yo‘qolgan deb topilganda, ulardan birining sud tomonidan ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomalaga layoqatsiz deb topilsa, sodir qilgan jinoyati uchun uch yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo‘lsa, o‘rtada voyaga yetmagan bolalari borligidan qat’i nazar, er-xotindan birining arizasiga ko‘ra ular o‘rtasidagi nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida nikohdan ajratiladi.<sup>2</sup> [O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 01.09.1998-yil. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.]

Yuqoridagi asoslardan tashqari va yuqoridagi asoslar bo‘yicha ham nizo mavjud bo‘lgan holatda er-xotinning nikohini tugatish sud tartibida amalga oshiriladi.

Demak, yuqorida keltirgan holatda, qonun jihatidan oila hisoblangan yoshlardan birining arizasiga ko‘ra, sud tomonidan ular o‘rtasidagi nikoh bekor qilinadi. Ammo nikoh bekor qilinsa qanday oqibat yuzaga keladi, degan savol paydo bo‘ladi?

Agarda nikoh sud tomonidan bekor qilinsa, ular ajrashgan maqomiga ega bo‘ladi va oila qurib yashagan deb qaraladi. Ammo jamiyatda hali oila bo‘lib yashashga ulgurmagani, faqatgina qonun jihatidan oila sifatida e’tirof etilgan yoshlarning nikohi bekor qilinsa, ular oila qurgan va birga yashagan degan maqom yuzaga kelmoqda. Bu ularning keyingi hayoti uchun salbiy holatlarni yuzaga keltirmoqda. Masalan, bir oilaning qizining to‘yi 15-oktabr kuniga belgilangan, qiz bo‘lajak turmush o‘rtog‘i bilan to‘ydan bir oy oldin qonuniy nikohdan o‘tdi va qonun jihatidan oila qurdi degan maqomga ega bo‘ldi. Ammo to‘y qilishdan oldin, yigitning giyohvand ekanligi holati aniq bo‘lib qoldi. Endi qiz bilan u yigit o‘rtasidagi nikoh bekor qilinsa ham, ular “oilali bo‘lgan va ajrashgan” degan maqomga ega bo‘lib qoladi. Bu qizning ham yigitning ham sha’niga bir umrlik belgi sifatida qoladi.

Demak, ushbu holatda nikohni bekor qilish emas, nikohni haqiqiy emas deb topish lozim. Chunki, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksining 56-moddasiga ko‘ra, “Haqiqiy emas deb topilgan nikoh er-xotin uchun ushbu Kodeksda belgilangan shaxsiy

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 01.09.1998-yil. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

va mulkiy huquq hamda majburiyatlarni vujudga keltirmaydi”<sup>3</sup>, deyilgan. [ O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi 01.09.1998. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 56-modda]

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 114-moddasida “Haqiqiy bo‘lmagan bitim uning haqiqiy emasligi bilan bog‘liq bo‘lgan oqibatlardan tashqari boshqa yuridik oqibatlarga olib kelmaydi va u tuzilgan paytidan boshlab haqiqiy emasdir”<sup>4</sup> deb belgilangan. [ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 01.03.1997. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 114-modda]

Demak, nikoh haqiqiy emas deb topilsa, nikoh tuzgan yoshlarning huquqiy holati dastlabki holatga qaytadi ya’ni ular oila qurmagan degan maqomda bo‘lishadi. Bu hali chindan oila sifatida yashab ulgurmagan yoshlarni nikohni bekor qilishdagi oqibatdan farqli ravishda, oila qurmagan degan maqom beradi va kelajak uchun ham hech qanday to‘siq keltirmaydi.

Ammo O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksida nikohni haqiqiy emas deb topish asoslari aniq belgilab qo‘yilgan:

**1-asos: agarda nikoh taraflarning ixtiyoriga zid ravishda, majburiy tuzilgan bo‘lsa;**

Oila kodeksining 14-moddasida nikoh qurish ixtiyoriydir, deb belgilangan. Nikoh tuzish uchun bo‘lajak er-xotin o‘z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.<sup>5</sup> [ O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi 01.09.1998. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 14-modda ]

Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi. Yoshlarni ixtiyoriga qarshi ravishda yaqinlari majburlovi ostida oila qurish holatlari mavjud ekanligi barchamizga ma’lum hisoblanadi, agarda ushbu holat bo‘yicha sudga ariza bilan chiqilsa, sud nikohni haqiqiy emas deb topishi mumkin.

**2-asos: nikoh yoshiga yetmay tuzilgan ya’ni taraflar 18 yoshga yetmay tuzilgan bo‘lsa;**

Oila kodeksining 15-moddasida nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o‘n sakkiz yosh etib belgilanadi<sup>6</sup> deyilgan. [ O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi 01.09.1998. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 15-modda ]

Faqat uzurli sabablardan tashqari ya’ni erta homiladorlik holatida nikoh yoshini bir bir yoshga qisqartish, emansipatsiyada ham nikoh yoshi nikoh davlat ro‘yxatidan

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi 01.09.1998. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 56-modda

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 01.03.1997. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 114-modda

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi 01.09.1998. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 14-modda

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi 01.09.1998. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 15-modda

o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi tomonidan bir yoshga kamaytirilishi mumkin. Bu asoslardan tashqari nikoh yoshiga yetmay turib nikoh qurgan shaxslarning nikohi haqiqiy emas deb topiladi.

**3-asos: tarafdardan loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida tuzilgan bo'lsa;**

Nikohlanuvchi shaxslardan birida yana bitta qonuniy nikoh bo'lib, u hali bekor qilinmasidan turib, nikohdan o'tilgan bo'lsa ham nikoh haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

**4-asos: nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida nikoh tuzilgan bo'lsa;**

Oila kodeksining 57-moddasida qarindoshlik darajasi belgilab berilgan. Unga ko'ra:

Bir umumiy uchinchi shaxsdan (ajdoddan) kelib chiqqan shaxslar qarindoshlar hisoblanadi. Ikki shaxs o'rtasidagi to'g'ri shajara bo'yicha qarindoshlikning yaqinligi qarindoshlik darajasi, ya'ni tug'ilish soni bilan belgilanadi.

Bolalar ota-onasiga nisbatan to'g'ri shajara bo'yicha birinchi, nevara bobosiga, buvisiga nisbatan — ikkinchi, evara katta bobosiga, katta buvisiga nisbatan — uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi va hokazo.

Aka-uka, opa-singil, ularning bolalari, ota-onaning aka-uka va opa-singillari hamda ularning bolalari, bobo va buvilarning aka-uka hamda opa-singillari va ularning bolalari va shunga o'xshashlar yon shajara bo'yicha qarindoshlar hisoblanadi va hokazo.

To'g'ri shajara bo'yicha qarindoshlar yon shajara bo'yicha qarindoshlarga nisbatan yaqinroqdir deb keltirilgan.

**5-asos: tarafdardan loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida tuzilgan bo'lsa;**

Yuqorida ta'kidlanganidek, oilada sog'lom muhit vujudga kelishi uchun nikohlanuvchi shaxslar ruhiy va jismoniy jihatdan sog'lom bo'lishi shart. Agarda nikohlanuvchilardan biri ruhiy kasal yoki aqli zaif bo'lsa va bu sud tomonidan e'tirof etilgan bo'lsa ham nikohni haqiqiy emas deb topish mumkin. Faqat bir jihatga e'tibor qaratmoq kerak, nikohga kirishuvchilardan biri bu haqda nikoh qurishdan oldin bilmagan bo'lsagina, nikoh haqiqiy emas deb topiladi.

Muomalaga layoqatsizlik holati nikohdan keyin yuzaga kelsa nikoh tugatilinadi. Chunki Oila kodeksining 37-moddasida nikoh er-xotindan biri yoki har ikkalasining arizasiga muvofiq nikohdan ajratish yo'li bilan, shuningdek sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan er yoki xotinning vasiysi bergan arizaga muvofiq tugatilishi

mumkin<sup>7</sup> deyilgan. [ O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi 01.09.1998. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 37-modda ]

**6-asos: soxta nikoh tuzilganda, ya'ni er-xotin yoki ulardan biri oila qurish maqsadini ko'zlamay nikoh qayd qildirganda;**

Oila kodeksi 54-moddasida er-xotin soxta nikoh qayd qildirgan va oila qurmagan bo'lsalar, nikoh haqiqiy emas deb topilishi mumkin<sup>8</sup> deyilgan. [ O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi 01.09.1998. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 54-modda ]

Shuningdek, Fuqarolik kodeksining 124-moddasida yuridik oqibatlar tug'dirish niyati bo'lmagan holda, nomigagina tuzilgan bitim (qalbaki bitim) o'z-o'zidan haqiqiy emasdir<sup>9</sup> deb keltirilgan. [ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 01.03.1997. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 124-modda ] Ushbu holatda nikohlanuvchi shaxslar haqiqatda er-xotinlik munosabatiga kirishmaydi.

Bugungi kunda "green card" asosida xorijiy davlatlarga ketish tizimi yo'lga qo'yilgan. "Green card" yutib olgan qizlar bilan, "Green card" yutib olmagan yigitlar o'rtasida nikoh qurish holatlari uchramoqda. Ular haqiqatda er-xotinlik munosabatiga kirishmaydi va ko'zbo'yamachilik uchun nikohdan o'tishadi, bundan maqsad "Green card" yutib olmagan yigit shu qiz orqali xorijga chiqish imkoniyatini qo'lga kiritish bo'ladi. Kaliforniyada "green card" orqali kelgan immigrantlarning nikohlari haqiqiy emas deb topilgan, chunki ular haqiqatda oila qurish niyatida, nikohdan o'tishmagan.<sup>10</sup>[Abrams, Kerry " The end of annulment". Journal of Gender, Race&Justice, Vol. 16, Issue 3 (Summer 2013), pp. (681-704) ]

**7-asos: nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odamning immunitet tanqisligi virusi (OIV kasalligi) borligini ikkinchisidan yashirganda, agar ikkinchisi sudga shunday talab bilan murojaat etganda, nikoh haqiqiy emas deb topilishi mumkin.**

Ushbu holatda OIV kasalligi bilan kasallangan shaxslar o'zaro roziligi bilan nikoh qurishni istashsa, FHDY organlari ularni nikohdan o'tkazishadi va ularning kasallik holati natijasida nikoh haqiqiy emas deb topilmaydi, chunki ular o'rtasida kasallik yashirilmagan, nikoh o'zaro ixtiyoriylikka asoslangan.

Demak, yuqorida bayon etgan holat ushbu keltirilgan asoslarning hech biriga tushmaydi, shu sababli nikoh haqiqiy emas deb topilmaydi, nikoh bekor qilinishi mumkin. Ammo bu yoshlarning keyingi hayoti uchun to'siqlarni vujudga keltirishi mumkin, masalan, yana oila qurishni istasa, bu uning ikkinchi nikohi deb qaraladi,

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi 01.09.1998. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 37-modda

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi 01.09.1998. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 54-modda

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 01.03.1997. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 124-modda

<sup>10</sup> Abrams, Kerry " The end of annulment". Journal of Gender, Race&Justice, Vol. 16, Issue 3 (Summer 2013), pp. (681-704)

shuningdek, xalq o'rtasida ajrashdi degan qarash vujudga keladi.

Xorijiy davlatlarning oila kodekslarida agarda nikoh tuzuvchilardan birortasi o'zining giyohvand moddalarga ruju qo'yganini yashirib nikoh tuzsa, nikoh haqiqiy emas deb topiladi degan asoslar keltirilgan. Masalan: Rossiya Federatsiyasining Oila kodeksi va Fuqarolik kodeksida: agar taraflardan biri o'zining giyohvand moddalarga qaramligini yashirgan bo'lsa, bu nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'lishi kerak deyilgan.<sup>11</sup> [ Rossiya Federatsiyasining Oila kodeksi 29.09.1995-yil. Refworld | UNHCR's Global law and Policy Database. 44-modda] Agarda nikohga kirishuvchilardan biri alkogol ichimliklari ta'sirida bo'lganida yoki giyohvand moddalar ta'sirida bo'lgan vaqtda, nikohdan o'tishni istab, nikohdan o'tgan bo'lsa ham, nikoh haqiqiy emas deb topiladi, chunki u o'zining o'sha vaqtdagi harakatlarining mohiyatini anglab yetmagan bo'ladi. Agarda giyohvand moddalar ta'siridan chiqqandan keyin ham u tuzilgan nikohni davom ettirsa, bu nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'lmaydi deyilgan, chunki u o'z harakatlarini bu vaqtda anglagan bo'ladi. <sup>12</sup> [Annulment Soviet Family Law: III. Manitoba Law Journal, Vol. 10, Issue2 (1979), pp. 140-149 ]

Hindistonning "Hindu Marriage Act" qonuniga ko'ra, er-xotinlardan biri o'zining giyohvandligini yoki alkogol iste'molchisi kabi og'ir sog'liq muammolarini yashirgan bo'lsa, ikkinchi tomon nikohni haqiqiy emas deb topishni talab qilishi mumkin<sup>13</sup> deyilgan. [ Hindistonning "Hindu Marriage act" qonuni 1995-yil. Punjab and Haryana High Court. 12 (1) c -moddasi] AQSHda bu masala shtatlarga ko'ra farq qiladi masalan, Kaliforniya va Nyu-Yorkda taraflardan biri o'zining giyohvand moddalarga qaramligini yashirsa nikoh haqiqiy emas deb topilishi belgilangan. Britaniya Kolumbiya universitetining qonunchilik sharhida Nyu-Yorkda taraflardan biri o'zining giyohvand ekanligini yashirib, oila qurgan bo'lsa, Nyu-York sudlari nikohni haqiqiy emas deb topish uchun sudga murojaat etgan da'vogarning manfaatiga sud hujjatini chiqarib beradi, deb keltirib o'tilgan, shuningdek, ushbu maqolada Nyu-York apellyatsiya sudi har qanday holatda nikohga kirishuvchilar firibgarlik, yolg'on asosida nikohga kirishgan bo'lsalar, ular o'rtasidagi nikoh haqiqiy emas deb topiladi degan doktrinani izohlab bergan. Unga ko'ra, nikohga kirishuvchi shaxslardan biri o'zidagi giyohvandlik holatini yashirmaganda, uning bo'lajak turmush o'rtog'i u bilan oila qurishga rozi bo'lmas edi, deyilgan, shu sababli, nikoh haqiqiy emas deb topiladi deb belgilangan.<sup>14</sup> [Thomas M.Franckt The annulment of marriage in "Until Fraud Do Us

<sup>11</sup> Rossiya Federatsiyasining Oila kodeksi 29.09.1995-yil. Refworld | UNHCR's Global law and Policy Database. 44-modda

<sup>12</sup> Annulment Soviet Family Law: III. Manitoba Law Journal, Vol. 10, Issue2 (1979), pp. 140-149

<sup>13</sup> Hindistonning "Hindu Marriage act" qonuni 1995-yil. Punjab and Haryana High Court. 12 (1) c -moddasi

<sup>14</sup> Thomas M.Franckt The annulment of marriage in "Until Fraud Do Us Part" University of British Columbia Law Review, Vol. 1, Issue 4 (September 1961), pp. 471-482

Part” University of British Columbia Law Review, Vol. 1, Issue 4 (September 1961), pp. 471-482 ] Bu kabi asoslarni yana boshqa xorijiy davlatlarning qonunchiligida ham ko‘rishimiz mumkin.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Demak, maqolada giyohvandlik va nikoh masalalari, ularning huquqiy va ijtimoiy oqibatlari tahlil qilindi. O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi asosida nikohni bekor qilish yoki uni haqiqiy emas deb topish oqibatlari bayon etildi. Yuqoridagilarni inobatga olib, qonunchiligimizga muayyan o‘zgartirishlar kiritmoq maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksiga nikohni haqiqiy emas deb topish asoslariga, normal oilaviy hayotni kechirishga to‘sqinlik qiladigan muhim holatlarni yashirish yoki boshqa asoslar degan bandni kiritish taklif etiladi. Shundagina, sud tomonidan yuqorida keltirilgan holat yuz bersa, nikoh haqiqiy emas deb topilishi mumkin, ungacha nikoh bekor qilinadi bu esa turli xil ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Nikohni yuqoridagi asoslarga ko‘ra, uni haqiqiy emas deb topish natijasida, nikohga kirishgan shaxslarni ruhiy bosimdan, ularning sha’ni, qadrini kamsitilishidan saqlab, ularni kelajakda hech qanday to‘siqlarsiz go‘zal oilaviy hayot kechirishlariga imkon yaratiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. “Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida “gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.08.2003-yildagi 365-son qarori. <https://lex.uz/docs/-245890>
2. O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi 01.09.1998-yil <https://lex.uz/mact/-104720#-158625>
3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 01.03.1997-yil <https://lex.uz/mact/-111189> fuqarolik
4. Adolat Xurramova, A.Tojiboev [https://www.researchgate.net/publication/360293872\\_Nikohni\\_haqiqiy\\_emas\\_deb\\_topish\\_v\\_a\\_uning\\_oqibatlarini\\_qo'llash\\_bilan\\_bog'liq\\_munosabatlar](https://www.researchgate.net/publication/360293872_Nikohni_haqiqiy_emas_deb_topish_v_a_uning_oqibatlarini_qo'llash_bilan_bog'liq_munosabatlar)
5. Luryi, Yuri. Annulment Soviet Family Law: III. Manitoba Law Journal [https://heinonline.org/HOL/Page?men\\_tab=srchresults&handle=hein.journals/manitob10&id=153&size=2&collection=journals&terms=annulment|drug&termtype=phrase&set\\_as\\_cursor=0](https://heinonline.org/HOL/Page?men_tab=srchresults&handle=hein.journals/manitob10&id=153&size=2&collection=journals&terms=annulment|drug&termtype=phrase&set_as_cursor=0)
6. Hindu Marriage Act 1955 [https://highcourtchd.gov.in/hclsc/subpages/pdf\\_files/4.pdf](https://highcourtchd.gov.in/hclsc/subpages/pdf_files/4.pdf)
7. Abrams, Kerry “The end of annulment”. Journal of Gender, Race & Justice [https://heinonline.org/HOL/Page?men\\_tab=srchresults&handle=hein.journals/manitob10&id=153&size=2&collection=journals&terms=annulment|drug&termtype=phrase&set\\_as\\_cursor=0](https://heinonline.org/HOL/Page?men_tab=srchresults&handle=hein.journals/manitob10&id=153&size=2&collection=journals&terms=annulment|drug&termtype=phrase&set_as_cursor=0)
8. Rossiya Federatsiyasining Oila kodeksi <https://www.refworld.org/legal/legislation/natlegbod/1995/en/102785>
9. Thomas M.Franckt The annulment of marriage in “Until Fraud Do Us Part” University of British Columbia Law Review [https://heinonline.org/HOL/Page?men\\_tab=srchresults&handle=hein.journals/manitob10&id=153&size=2&collection=journals&terms=annulment|drug&termtype=phrase&set\\_as\\_cursor=0](https://heinonline.org/HOL/Page?men_tab=srchresults&handle=hein.journals/manitob10&id=153&size=2&collection=journals&terms=annulment|drug&termtype=phrase&set_as_cursor=0)